

**Ilhomjon Umarov**  
Doctor of Philosophy in  
Philology PhD,  
Jizzakh State Pedagogical  
University,  
Jizzakh, Uzbekistan

**Ilhomjon Umarov**  
Filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, PhD,  
Jizzax davlat pedagogika  
universiteti,  
Jizzax, O'zbekiston

**Илхомжон Умаров**  
доктор философских наук,  
Джизакский  
государственный  
педагогический  
университет,  
Джизак, Узбекистан

## “MALIKA AYYOR” DOSTONIDA NARSA VA HODISALARNI IFODALOVCHI TURKIY SO'ZLARNING KO'P MA'NOLILIGI

**ANNOTATSIYA:** Maqolada “Malika ayyor” dostoni matnidagi narsa va hodisalarni ifodalovchi turkiy so'zlardagi ko'p ma'nolilik masalasi, doston matnidagi bunday so'zlarning deyarlik 52% dan ortig'i ot so'z turkumiga mansubligi yoritilgan. Mazkur otlar tarixiy-etimologik nuqtai nazardan xilma-xil ko'rinishlarga ega ekanliklari aniqlab berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** doston, matn, turkiy qatlam, baxshi shoir, epik qahramon, qadimgi turkiy til, tarixiy asar, turkiy so'zlar, leksema.

## МНОГОЗНАЧЕНИЕ ТУРЕЦКИХ СЛОВ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ ВЕЩИ И СОБЫТИЯ В ЭПОСЕ «МАЛИКА АЙЁР»

**АННОТАЦИЯ:** В статье освещается проблема многозначности турецких слов, обозначающих вещи и события в тексте эпоса «Маликка айёр», тот факт, что более 52% таких слов в эпосе относятся к именной группе. Определено, что эти имена имеют разные формы с исторической и этимологической точки зрения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** эпос, текст, турецкий слой, бахшский поэт, эпический герой, древнетурецкий язык, исторический труд, турецкие слова, лексема

## MULTIPLE MEANING OF TURKISH WORDS REPRESENTING THINGS AND EVENTS IN THE EPIC "MALIKA AYYOR"

**ABSTRACT:** In the article, the issue of ambiguity in Turkish words representing things and events in the text of the epic "Malikka Ayyor" is highlighted, the fact that more than 52% of such words in the epic belong to the noun group. It has been determined that these names have different forms from the historical and etymological point of view.

**KEY WORDS:** epic, text, turkish layer, bakhsh poet, epic hero, ancient turkish language, historical work, Turkish words, lexeme.

## 1. KIRISH

Ko'p ma'nolilik har qanday tilda salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. So'zlarning ko'p ma'noliligi – polisemiya hodisasi til boyligida o'z o'rniga ega.[1] Ko'p ma'noli so'zning alohida olingan semalari qanchalar rang-barang bo'lmasin, ular har doim yagona ma'noviy asos tevaragida guruhlashadi. Ikkilamchi ma'nolar dastlabki ma'noning keyingi taraqqiyoti tarzda e'tirof etiladi.[2] Ko'p ma'nolilik so'zning semantik qurilishiga oid lisoniy hodisalardandir. Birdan ortiq ma'noga egalik (polisemiya) deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi.[3] Ayni tamoyillarga asoslanib «Malika ayyor» dostoni matnida qo'llangan narsa va hodisalarni ifodalovchi so'zlardagi ko'p ma'noli so'zlarni semantik, leksik-grammatik va genealogik nuqtai nazardan o'rganishga harakat qildik. Bu boradagi izlanishlarimiz ko'p ma'nolilikning ot

so'z turkumi doirasida eng faol ekanligini ko'rsatdi.

“Quyoshdan keyingi uchinchi planeta” (O'TIL, 2, 14) bosh semasini anglatuvchi er astronomi qadimgi yozma yodgorliklarda to'rt ma'noda qo'llangan (DTS, 257). Navoiy asarlari tilida ushbu ot leksema olti ma'noda ishlatilgan (ANATIL, I, 524-525). Shoirning tarixiy asarlari leksikasida bu istiloh bir yuzi o'n sakkiz o'rinda to'rt ma'noni ifodalash uchun xizmat qilganligi e'tirof etilgan.[4] Hozirgi o'zbek adabiy tilida er leksemasining o'n bir ma'noda voqealanganligi aniqlangan (O'TIL, 2, 14). Biz tadqiq qilgan dostonida ham mazkur leksemaning qo'llanilish faoliyati ancha yuqori va asosan quyidagi ma'nolarni ifodalagan: 1. “Narsalar turgan, tirik organizmlar hayot kechirayotgan yuza, sath (shaxs yoki boshqa narsalarga nisbatan)” ma'nosida: *Izlasang, topmaysan urning ustidan (8); Borar ering aytgin menga, sen dushman (22)*; 2. “Er sathining muayyan bir qismi; joy, hudud”

ma'nosida: ...ostiga mingandir G'irotni, har erga borsa topadi murodni (16); Endi tavakkal, ovloq erda bunga ma'lum qilayin bir", — deb Avazxon o'zini ma'lum qilib, bir so'z qilib turibdi (23); 3. "Biror narsa band qilib turgan, egallagan o'rin, joy; makon" ma'nosida: G'irotni Soqiga berib, qirq eshikli chillaxonasiga kirib, ko'kragini nam erga berib xafa bo'lib yotdi (10); Qaradi: ikki oyog'i chim erni omochday tilgan, soqol murti o'sib ketgan (21); 4. "Muayyan vazifani (otni egarlash) bajarishga kirishdan oldingi qisqa muddat, vaqt" ma'nosida: Soqi otni yalang'ochlab, qashlab, egarlab berayin deb turgan eri (13); 5. "Muayyan mamlakat yoki davlatga qarashli hudud, joy" ma'nosida: «Bu erda qulayga tushirolmadik, biror erda qulayga tushirsak, o'zi bilan birga bo'lsak deb: — Avazxon, boradigan ering yaqinmi, uzoqmi? Biz ham birga borib kelsak, — dedi (19); 6. "Biror narsaning yoki a'zoning ayrim qismi, o'rni, nuqtasi, joyi" ma'nosida: Avazxon ko'nglini xushlab, dimog'i choq bo'lib, u eridan, bu eridan ushlab, Gulqiz oyimning ko'nglini xushlab, o'tiraberdi (54); 7. Erga urmoq — "qadrini kamsitmoq, tahqirlamoq" ma'nosida: Xoldar mahram o'n yigitman quvonib // Erga urib qo'shadi har bir so'ziga (207); 8. Er ostida (ostiga) - "Qaerda (ga) bo'lsa ham" ma'nosida: Er ostida

dushman tani chirisin (110); Er ostiga tushib ketsak kerak-da (46); 9. Er yuzi — "Butun dunyo, olam" ma'nosida: Qizil dev aytdi: — O'jyanim! Bizlar kun botish bilan kun chiqarni, er yuzini qolmay uchamiz (58); Er yuzinda jumla o'tgan valilar (72); 10. Erga qo'ymoq — "Hammaning gapi, maslahati bir xil bo'lib chiqmoq" ma'nosida: Avazxon uchchovi chinorning oldida ko'p so'zlarni gaplashib, maslahatni bir erga qo'yib: - Ey bolam, gapdan nima chiqadi, yo'l yurmoq a'loroq dedi (66); 11. Erda qolmoq - "Boshini erda qoldirmaslik yoki begona qilmaslik" ma'nosida: Pastki ko'shkiga etib, «Mardning boshi erda qolmasin», Avazjonning boshini tizzasiga olib «Qaysi mamlakatdan kelding?» — deb so'rab, bir so'z dedi (51); 12. Er leksemasi doston matnida jo'nalish, o'rin-payt, chiqish, qaratqich kelishigi shaklida ko'makchi vazifasini bajarganda payt, o'rin, sabab kabi munosabatlarni bildiradi: Devlar bu erda yo'q edi (54); Manzili shu erdan etmish yillik yo'l keladi (58); SHunda Xadicha Tillaqizdan bu so'zni eshitib, erdan temirtak topgan qulday bo'lib, chopib orqasiga qayta berdi (108) kabi.

Ko'p ma'nolilik leksemalardan yana biri "organizmning yurak va qon tomirlardan iborat yopiq sistema ichida to'xtovsiz harakatlanib turuvchi suyuq to'qimasi" ma'nosini

anglatuvchi *qon* leksemasi ham doston matnida faol qo'llangan. Navoiy asarlari tilida bu istilohning ikki ma'noda qo'llanganligi (ANATIL, IV, 63), shuningdek, shoirning tarixiy asarlari leksikasida "qon", "xun, qon qasosi" ma'nolarida ishlatilganligi tilshunoslikda e'tirof etilgan.[5] Biz o'rgangan dostonida ushbu leksemaning quyidagi ma'nolarda qo'llanganligi aniqlandi: 1. "Rang-tusi o'chgan" ma'nosida: *Bu devlarni ko'rib, merganlarning rangi-tusi uchib, qoni qochib, mazasi ketib qoldi*(41); 2. "Qattiq, ezilib-kuyib yig'lamoq, qattiq azobli holatda yig'lamoq" ma'nosida: *Qon yig'latib bu manzilda // Sen ketarsan bizni tashlab // Ayroliq o'tiga dog'lab // Biz qolamiz qonlar yig'lab* (120); 3. "Qurbon beriladigan urush, jang qilmoq; shu yo'l bilan

kishi(lar)ni qurbon qilmoq" ma'nosida: *G'ayrat bilan qon to'kishmoq lozimdi(r)* (131); *Ot qo'yib dushman ustiga // Qaramay baland-pastiga // Qon to'kilib shu zamonda* (141); 4. "Qattiq qayg'u-azobda qolmoq; bag'ri qon bo'lmoq" ma'nosida: *YOdimizga sizni olsak // Biz yig'larmiz qon yutib* (120); 5. "Rangi o'chmoq, qizilligi yo'qolmoq" ma'nosida: «*Qoni suyuq, rangida qoni yo'q, ko'zi olaygan yomon yigit ekan*», *deb devlar qo'rqib turibdi* (42) kabi.

Туркий қатламдаги сўзларда кўп маънолилиқ	
Ер лексемаси	Қон лексемаси
1. О'ТIL, 2, 14.: 11 та ма'но	1. О'ТIL, 5, 328.: 4 та ма'но
2. DTS (Qadimgi turkiy lug'at, 257): 4 та ма'но	2. DTS (Qadimgi turkiy lug'at, 464): 4 та ма'но
3. ANATIL, I, 524-525.: 6 та ма'но	3. ANATIL, IV, 63.: 2 та ма'но
4. ANTA.: 4 та ма'но «Malika ayyor» dostonida 12 та ма'нода qo'llangan:	4. ANTA.: 2 та ма'но «Malika ayyor» dostonida 5 та ма'нода qo'llangan:
1. "Yuza, sath (shaxs yoki narsalarga	1. "Rang-tusi o'chgan"

	nisbatan)”		
2.	“Er sathining qismi; joy, hudud”	2.	“Ezilib - kuyib yig‘lamoq”
3.	“Egallangan o‘rin, joy; makon”	3.	“Kishilarni qurbon qilmoq”
4.	“Harakatdan oldingi qisqa muddat, vaqt”	4.	“Qayg‘u - azobda qolmoq, bag‘ri qon bo‘lmoq”
5.	“Mamlakatga qarashli hudud, joy”	5.	“Rangi o‘chmoq, qizilligi yo‘qolmoq”
6.	“Biror narsaning qismi, o‘rni, nuqtasi”		
7.	<i>Erga urmoq</i> – “qadrini kamsitmoq”		
8.	<i>Er ostida (ga)</i> – “qaerda (ga) bo‘lsa ham”		
9.	<i>Er yuzi</i> – “butun dunyo, olam”		
10.	<i>Erga qo‘ymoq</i> – “gapi, maslahati bir xil bo‘lib chiqmoq”		
11.	<i>Erda qolmoq</i> – “begona qilmaslik”		
12.	“Kelishiklar kesimida payt, o‘rin, sabab kabi munosabatlarni bildiradi”		

### 3-rasm. *Er* va *qon* leksemalarining ko‘p ma‘nolilikda ifodalanishi.

O‘z tovush qobig‘iga, mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan nutq birligi (O‘TIL, 3, 608) so‘z leksemasi ham dostonida faol qo‘llangan va quyidagi ma’nolarni ifodalagan: 1. “Gap, gap-so‘z, nutq” ma’nosida: *Ota, eshit mening aytgan so‘zimni (12); Aytgan so‘zim ol endi bo‘zo‘g‘lon (12);* 2. “Muayyan ma‘lumotni aytib berish, hikoya qilish” ma’nosida: *Ana shunda Parizod Go‘ro‘g‘lidan bu so‘zni eshitib, o‘sgan elini, sog‘u-so‘lini, sha‘n-shavkatini, manzil-joyini Go‘ro‘g‘liga bayon berib, bir so‘z deb turibdi...(8);* 3. “O‘zaro suhbatlashish yoki

maslahatlashish, munosabat bildirish” ma’nosida: *SHunda Go‘ro‘g‘libek Avazxondan bu so‘zni eshitib: — Avaz o‘g‘lim, bu so‘zni bejoy aytiding. Bu aytgan so‘zing ko‘p yomon bo‘ldi, endi har nima bo‘lsa, bormasang bo‘lmaydi (12);* 4. So‘z bermok – “Gapirishga imkon berish yoki bermaslik” ma’nosida: *So‘z bergandir merganlarga jodugar // So‘z bermasa, merganlarda nima bor (202);* 5. So‘z qotmoq – “Biror gap, so‘z aytishlik yoki aytmaslik; gapirmoqlik yoki gapirmaslik” ma’nosida: *Diqqat bo‘lib yotgan Avazjon*

*Gulzamonga so'ylamadi ham, qaramadi ham, so'z qotmadi ham (49); SHunda Qosimshoh qalandarlarga qarab: - Qaysi shahardan keldinglar? - deb so'rab, so'z qotib, bir so'z dedi: (91); 6. Maqol, hikmatli so'z; ibora namunasi sifatida: «Piyoda qo'noq - yaxshi qo'noq», degan so'z bor (84); «Er tilagan erda aziz», degan so'z bor (184) kabi. So'z leksemasi qadimgi turkiy tilda bir ma'noni ifodalaganligi ta'kidlangan (DTS, 511), Navoiy asarlarida esa to'rt ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan (ANATIL, III, 137). Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zleksemasining sakkiz semani ifodalash uchun qo'llanilayotganligi aniqlangan (O'TIL, 3, 608). YUqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, tadqiq qilingan doston matnida mazkur istiloh oltita semani ifodalash uchun xizmat qilgan.*

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан. 1975. – Б. 3.
2. Будагов Р.А. Введение в наука о языке. – М.: Учпедгиз, 1958. –С 39-50.
3. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. –Б.209.
4. Абдувалиева Д. Кўрсатилган манба, – 153 б.
5. Umarov, I. (2022). Organization of independent work of students in the credit-modular system of education. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (December 2, 2022; Helsinki, Finland), 94-97.
6. Umarov, I. (2022). Independent work of students as an important factor of learning according to the credit-modular system. Current research journal of pedagogics, 3(11), 25-32.
7. Umarov, I. (2021). Application of the turkic layer in the lexeme of the epics of "Malika Ayyor". Asian journal of multidimensional research, 10(4), 487-493.
8. Umarov, I. (2021). The ambiguity of turkish words that express things and events in the epic " Malika Ayyor". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 764-769.
9. Umarov, I. (2020). The abstract meaning lexemes in the poem "malika ayyor". Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Umarov, I. A. (2019). The derivation of borrowed words regarding to persian-tajik language. In культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования (pp. 65-68).
11. Akramovich, S. A. (2023). Ancient Social Development of Early Civilizations of Central Asia. Central asian journal of social sciences and history, 4(3), 69-73.